



## HOZIRGI KUNDA RESPUBLIKAMIZDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI AMALGA OSHIRISH VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Ortiqova Nilufarxon

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 2-son kasb-hunar maktabi Biznes asoslari o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, ijtimoiy muammolarni hal etishda bozor iqtisodiyotini barpo etish va mamlakatda tadbirkorlik hamda kichik biznesni rivojlantirish yo'lidan bordi. Natijada, tadbirkorlik va kichik biznes subyektlari mamlakat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida faoliyat olib bormoqda. Ushbu maqolada hozirgi kunda respublikamizda yoshlar tadbirkorligini amalga oshirish va Yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llabquvvatlanishining me'yoriy-huquqiy asoslari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Yoshlar tadbirkorli, Jahon iqtisodiyoti, kichik biznes, tadbirkorlik integratsiyalashuvi, tadbirkorlik faoliyati, yosh tadbirkorlik subektlari.

### CURRENTLY, THE IMPLEMENTATION AND REGULATORY FRAMEWORK OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP IN OUR REPUBLIC

**Annotation:** After gaining independence, Uzbekistan went on the path of building a market economy and developing entrepreneurship and small business in the country in solving social problems. As a result, business and small business entities operate in all branches of the country's national economy. In this article, the normative legal framework for the implementation of youth entrepreneurship and the use of youth entrepreneurship by the state is currently covered in our republic.

**Keywords:** Youth Entrepreneur, world economy, Small Business, Entrepreneurial integration, entrepreneurial activity, young entrepreneurial subjects.

Jahon davlatlari taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti muhim ahamiyatga ega bo'lib, kichik biznes va tadbirkorlik integratsiyalashuvi bu jarayonda eng muhim harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Eng rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Germaniyaning qisqa vaqt ichida Yevropa iqtisodiyotining ustunlaridan biriga aylanishi, Yaponiyaning dunyoga mashhur "yapon mo'jizasi" sifatida nom qozonishi, AQShning bugungi yuksak taraqqiyoti hamda Yevropa Ittifoqi tarkibidagi qator davlatlarning iqtisodiy yuksalishida yirik konsern va kompaniyalar emas, aynan kichik biznes va tadbirkorlik hal qiluvchi rol o'ynadi.

Ayni omillar kichik biznes va tadbirkorlik sohasini zamonaviylik va tarixiylik nuqtai nazaridan atroflicha o'rganishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining o'ziga xos jihatlari, jumladan, kapital mablag' sarfini kam talab qilishi, bozor iqtisodiyotining o'zgaruvchan talablariga tez moslashishi, ichki bozorni sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirishi, aholiga turli xizmatlar ko'rsatish, eksport salohiyatini o'stirish, aholining, yoshlarning bandligini ta'minlashdagi hissasi, shu bilan birga yosh yigit-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati alohida o'рни masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilmoqda. Hozirgi kunda



yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirish, bu jarayonda uchraydigan muammolar sabablarini o'rganish yuzasidan keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borish, qolaversa, muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, uning qonuniy-me'yoriy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masala O'zbekiston hukumatining iqtisodiyot sohasida amalga oshirayotgan islohotlarida eng ustivor, davlat siyosati darajasida ko'tarilgan masalalardan biri bo'lib, bu xususda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev izohlab berganidek: "...kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu asosda aholining bandligi va farovonligini oshirish muammolarini hal etishdan iborat".

Kichik biznesni rivojlantirish asosida bir qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar hal etilishi nazarda tutiladi. Birinchidan, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldiradigan, iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim sektor hisoblanadi, shuningdek, aholini ish bilan ta'minlashda, uning daromadlarini oshirishda eng asosiy omil va manba bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, hozirgi sharoitda jahon va mintaqaviy bozorlarda raqobat keskinlashib borayotgani hammaga ayon. Aynan kichik biznes o'zining harakatchanligi, kam sarmoya talab qilishi hisobidan ishlab chiqarishni yengilroq va tez modernizatsiya qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini yangilash imkoniyatiga ega ekani va shu tariqa bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchan talablariga yaxshi moslasha olishi bilan e'tiborlidir.

Uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'sishi bilan mamlakat tayanchi va suyanchi bo'lgan mulkdorlar o'rta sinfini shakllantirish vazifasi bevosita hal etiladi.

Umuman aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda aholi bandligini ta'minlaydigan va uning asosiy daromad manbayi bo'lgan muhim bo'g'in hisoblanmoqda.

Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarni tashkil etishga imkon yaratadi. Shuningdek, tadbirkor yoshlar safining kengayishi milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'lidan borishini ta'minlaydi. Bu esa yosh, tashabbuskor, yangicha fikrlaydigan tadbirkorlar avlodini shakllantirishni taqozo etadi.

Yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish.
2. Kichik biznes yo'nalishlarida yoshlarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish.
3. Yosh tadbirkorlarning innovatsion loyihalarini ilgari surishda ko'maklashish.
4. Yosh tadbirkorlik subektlarini moliyaviy va mulkiy qo'llab-quvvatlash.
5. Yoshlar tadbirkorlik sub'ektlarining bilim darajasi va malakasini oshirishga ko'maklashish.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ushbu va boshqa yo'nalishlari hukumat dasturlari, mintaqaviy dasturlar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xususiy tashabbuslar hisobidan amalga oshiriladi.



Hozirgi vaqtda yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun qator imkoniyatlar taqdim etilmoqda.

Respublikamizda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun bir qancha qarorlar va qonunlar qabul qilingan. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda Prezidentimizning «Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni va «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori muhim o'rin tutadi. Jumladan, prezidentimiz Sh.m.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan 2024-yilni «Yoshlar va biznesni qo'llab quvvatlash yili» deb e'lon qilindi.

Yoshlarni ish bilan ta'minlashda ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari va hayotda o'z o'rinlarini topib ketishlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining rivojlanishni eng asosiy omil va manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, xususan, yoshlarning biznes g'oyalari amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashish borasida keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, ularning barqaror va qo'shimcha daromad manbayiga ega bo'lishiga, milliy hunarmandchilik yanada rivojlanishiga, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirilishiga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalari ro'yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining bandligi ta'minlanishiga zamin yaratilmoqda.

Navqiron avlod tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashda respublikamizda tashkil etilayotgan «Yosh tadbirkorlar» kovorking-markazlari va «Yoshlar mehnat guzarlari» muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini egallagan yoshlar mustaqil faoliyatini boshlashmoqda.

Bundan tashqari yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida Prezident qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4862- son qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosi aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar hamda biznes sohasi vakillarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan, qarorda aholini, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, mikromoliyalash tizimini takomillashtirish, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llabquvvatlash tizimini joriy etish hamda yagona davlat tashkiloti tomonidan muvofiqlashtirib borish nazarda tutilgan.

Yurtimizda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil etish tajribasidan foydalangan holda barcha shahar va tumanlarida «Yoshlar kichik sanoat zonalarini» tashkil etildi. Ushbu sanoat zonalarida yoshlar loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish uchun zarur bo'ladigan barcha infratuzilma ob'yektlari joylashtirilmoqda.

Shu o'rinda xalqaro me'yoriy-huquqiy bazani tahlil qilishda quyidagi kamchiliklarni ta'kidlash o'rinli: ushbu qarorlar va qoidalarning aksariyati tavsiya xarakteriga ega va majburiy emas. Ularni amalga oshirilishi shubhasiz yoshlar tadbirkorligida ijobiy



natijalarga erishishga olib keladi. Shu bilan birga, hujjatlar barcha davlatlarda birdek amal qilmaydi (ba'zi hollarda, ular mamlakatlar va mintaqalarning etnomadaniy va iqtisodiy xususiyatlari tufayli qo'llanilishi mumkin emas – muallif), bu esa ushbu sohadagi rivojlanish jarayonlarining nomuvofiqligi va buzilishini, shuningdek, dunyo hamjamiyati bilan bog'liq holda rag'batlantirishni kamaytiradi<sup>85</sup>.

Bir qator qoidalar rejalashtirilgan eksperimental tekshirishni va chuqur tahlilni talab qiladi, shuning uchun faqat ma'muriy bo'lib qolgan me'yoriy-hujjatlar amalda yanada rivojlanmaydi.

Masalan, yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosini hal qilish uchun Xalqaro biznes liderlar forumi va shahzoda Uels fondi bilan hamkorlikda Yoshlar biznesini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, dasturni amalga oshirish bilan Xalqaro Yoshlar biznesi tashkiloti (YBI) shug'ullanadi. Ushbu dasturni tatbiq etishda dunyoning 39 mamlakati qamrab olingan. Dasturning mohiyati axborotni tarqatishdan boshlanib, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan yakunlanadi.

Provard maqsadi esa, yoshlar startapi tashabbuslarini har tomonlama rivojlantirishdir. Afsuski, ushbu tashkilotlarning xizmatlaridan yosh tadbirkorlarning o'rtacha 10-15 foizidan ko'prog'ina foydalanadi<sup>87</sup>.

Buning sababi esa birinchidan, ushbu tuzilmalarning kuzatuvchi vakillarining jiddiyroq taqsimlanmaganligi bo'lsa, ikkinchidan, ajratilgan mablag'lar cheklangan va yordam olish shartlari, ayniqsa, moddiy yordam juda qiyin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Tadbirkorlik subyektlarini xuquqiy ximoya qilish tuzumini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Farmoni. 2005 yil, 14 iyun.
2. I. A. Karimov. “Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. Toshkent, O'zbekiston”, 2002 yil.
3. “Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risi” da. O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1999 yil 14 fevral.
4. Sh. Sh. Shodmonov, U. V. G'afurov „ Iqtisodiyot nazariyasi” Toshkent „ Moliya “ 2005 yil.
5. Kichik Biznes va Xususiy Tadbirkorlikni tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. Toshkent-„ Fan va Texnologiya” 2005 yil.